


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кудашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	



O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI

Ergashev Qobiljon Ernazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bojxona instituti «Bojxona nazorati» kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0005-9940-7939

Kilichov Nazar Bafojevich

Bojxona instituti "Bojxona nazorati" kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-6447-0248

Annotatsiya. Transport oqimlarining jadal o'sishi sharoitida O'zbekiston Respublikasi bojxona-logistika tizimining zamonaviy holati hamda tovar yetkazib berish zanjirida yuzaga kelayotgan vaqt yo'qotishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida infratuzilma yuklamasining nomutanosibligi, idoralararo axborot almashinuvining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi va xavflarni boshqarish jarayonida inson omilining ta'siri aniqlangan. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida yagona axborot platformasini, sun'iy intellekt texnologiyalarini hamda bojxona terminallari konsepsiyasini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tovar yetkazib berish zanjiri, bojxona nazorati, transport koridorlari, sun'iy intellekt, yagona oyna, tranzit deklaratsiyasi.

Аннотация. Проведён анализ современного состояния таможенно-логистической системы Республики Узбекистан и временных потерь в цепи поставок товаров в условиях стремительного роста транспортных потоков. В результате исследования выявлены диспропорции инфраструктурной нагрузки, недостаточный уровень межведомственной интеграции информационных систем, а также влияние человеческого фактора на процессы управления рисками. Для повышения эффективности предложено внедрение Единой информационной платформы, технологий искусственного интеллекта и концепции таможенных терминалов.

Ключевые слова: цепь поставок товаров, таможенный контроль, транспортные коридоры, искусственный интеллект, единое окно, транзитная декларация.

Abstract. The current state of the customs and logistics system of the Republic of Uzbekistan and time losses occurring within the supply chain under conditions of rapidly increasing transport flows are analyzed. The study identifies imbalances in infrastructure capacity, insufficient interagency information integration, and the influence of the human factor in risk management processes. To improve the efficiency of customs administration, the implementation of a Unified Information Platform, artificial intelligence technologies, and the customs terminal concept is proposed.

Keywords: supply chain, customs control, transport corridors, artificial intelligence, single window, transit declaration.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilish, eksport-import jarayonlarini soddalashtirish hamda investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bojxona rasmiylashtiruvini o'rtacha vaqti 2017-yildagi **5 soat-u 42 daqiqadan** 2025-yilda **30 daqiqagacha**, ya'ni **11 barobarga** qisqardi [1]. Bojxona chegaralaridagi rasmiylashtirishning shaffoflik darajasi **80 foizga**, qog'ozsiz savdo ko'rsatkichi esa **74,07 foizga** yetdi [2]. Biroq, amaldagi tizimda qo'lyozma hujjatlar bilan ishlash, axborot tizimlarining o'zaro integratsiyalashmaganligi, inson omilining yuqori darajada saqlanib qolayotgani hamda tranzit yuklarni boshqarish bilan bog'liq ayrim masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, 2025-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bojxona deklaratsiyalarining **23 foizida** hujjatlarni to'ldirish bilan bog'liq xatoliklar aniqlangan bo'lib, mazkur xatoliklarning **68 foizi** inson omili bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan [3]. Bu esa tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarishda bojxona nazoratini raqamlashtirish va avtomatlashtirishning dolzarbligini yana-da oshirmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarish hamda bojxona nazorati masalalari, asosan, alohida yo'nalishlarda o'rganilgan. Logistika va tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarishga oid tadqiqotlar, asosan, korporativ darajadagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, bojxona ma'muriyatchiligiga bag'ishlangan ilmiy ishlar ko'proq huquqiy va nazorat jihatlarini yoritishga yo'naltirilgan. JBT tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan global tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda bojxona nazorati va tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarishni integratsiyalash bo'yicha ilmiy-metodologik asoslarni shakllantirgan davlatlar ulushi atigi **18 foizni** tashkil etgan [4]. O'zbekistonda esa mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar, asosan, huquqiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, boshqaruv modellari, raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi hamda xavflarni baholash tizimlari ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarishda bojxona nazoratini samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida milliy va xalqaro axborot tizimlarini integratsiyalash, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash hamda **"bojxona terminali"** konsepsiyasini ishlab chiqish masalalari ilmiy jihatdan istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tovar yetkazib berish zanjirlarida bojxona nazorati samaradorligini hamda transport-logistika jarayonlarini baholash maqsadida tizimli yondashuv va kompleks metodologik apparatdan foydalanildi.

Komparativ va statistik tahlil metodi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda Davlat statistika qo'mitasining **2017–2025-yillardagi** empirik ma'lumotlari asosida transport va yo'lovchilar oqimi dinamikasi, bojxona rasmiylashtiruv muddatlari hamda axborot tizimlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kanal va koridorlar kesimida tahlil. Mamlakatdagi **32 ta** avtomobil va **14 ta** temir yo'l o'tkazish punktlaridagi yuklama darajasi, **7 ta** asosiy transport koridorlari bo'yicha tashuvlar ulushi hamda bojxona yo'laklari ("qizil", "sariq", "yashil") kesimida yuzaga keladigan vaqt yo'qotishlari guruhlangan holda tahlil qilindi.

Muvofiqlik va integratsiya darajasini baholash. Xalqaro konvensiyalar (TIR/eTIR, NCTS, CATS) va xalqaro shartnomalar doirasida tranzit tizimlarining qo'llanilishi, kafolat mexanizmlarining amal qilishi hamda oldindan deklaratsiyalash darajasi (**51 foiz**) sifat va miqdoriy jihatdan baholandi.

Iqtisodiy-matematik va algoritmik modellash. Bojxona nazoratida inson omilining ta'sirini kamaytirish, inspeksion ko'rik majmualari tasvirlari hamda yuk hujjatlarini tahlil qilish jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalari va Yagona axborot platformasini qo'llashning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-28-son**¹ qarori bilan tasdiqlangan konsepsiyaga muvofiq, milliy logistika bozorida **3PL** va undan yuqori formatdagi yirik transport operatorlari faoliyatini rag'batlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shunga qaramay, bugungi kunda mamlakatimizda logistik operatsiyalar, asosan, boshlang'ich **1PL** va **2PL** modellari asosida amalga oshirilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar rivojlangan davlatlarda ushbu sohada **3PL** va **4PL** operatorlari ulushi **60–70 foizni** tashkil etishini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkichning **15–20 foiz** darajasida ekanligi tovar yetkazib berish zanjirlarini boshqarish samaradorligini yanada oshirish zarurligini hamda logistik xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi chegarasidan kirib kelayotgan yukli avtotransport vositalari **22–30 daqiqa** oralig'ida kompleks nazoratdan o'tkaziladi. Ushbu jarayonda sanitariya-karantin nazorati o'rtacha **3 daqiqa**, chegara nazorati **4 daqiqa**, bojxona nazorati **15 daqiqani** tashkil etadi. Shuningdek, tovar turiga qarab fitosanitariya yoki veterinariya nazorati o'rtacha **4 daqiqa** davom etadi.


Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketayotgan yukli avtotransport vositalarini nazorat qilishning umumiy vaqti **14–20 daqiqani** tashkil etadi. Mazkur jarayonda bojxona nazorati **10 daqiqa**, chegara nazorati **4 daqiqa**, shuningdek, tovarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib fitosanitariya yoki veterinariya nazorati o'rtacha **3 daqiqa** davom etadigan ixtisoslashtirilgan ko'riklarni qamrab oladi. Chegara nazorati tartibi ketma-ketlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir nazorat organining mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Biroq, mazkur yondashuv nazorat jarayonlarini yanada optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>

ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda “yagona oyna” tizimi qo'llanilib, u barcha nazorat organlarining bir vaqtning o'zida va bir joyda faoliyat yuritishini ta'minlaydi [5].

O'zbekistonning tranzit salohiyati yuqori bo'lib, mamlakat Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Shu bilan birga, tranzit yo'laklarining uzunligi va tranzit vaqti logistika xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tranzit vaqtini **10 foizga** qisqartirish savdo xarajatlarini **5–7 foizga** kamaytirishga xizmat qiladi [6].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, **2021–2025-yillarda** O'zbekiston chegara bojxona postlari orqali o'tgan transport vositalari hajmi sezilarli darajada oshgan. Xususan, kunlik o'rtacha avtotransport harakati **2,4 ming tadan 5,1 ming tagacha** (2 barobarga), yo'lovchilar oqimi esa **43 ming nafardan 165 ming nafargacha** (4 barobarga) o'sgan. Mazkur o'sish bojxona nazoratining zamonaviy va raqamli usullarini yanada keng joriy etishning dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, mavjud **32 ta** avtomobil o'tkazish punktlarining **97 foiz** yuklamasi atigi **15 ta** post hissasiga to'g'ri kelishi infratuzilma yuklamasining nomutanosib taqsimlanganini ko'rsatadi. Infografikadagi ma'lumotlar O'zbekiston transport-logistika va bojxona tizimida jadal rivojlanish jarayonlari kuzatilayotganini ifodalaydi (**1-rasm**).




1-rasm. O'zbekistonning transport harakatining asosiy ko'rsatkichlari²

Infografikada ko'rsatilganidek, **32 ta** avtomobil o'tkazish punktlarining **97 foiz** yuklamasi atigi **15 ta** postga, **14 ta** temir yo'l o'tkazish punktlarining **97 foiz** yuklamasi esa **7 ta** postga to'g'ri kelmoqda. Bu esa yuk oqimlarining yuqori darajada markazlashganini hamda infratuzilma imkoniyatlarini yanada muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuklarning **43 foizi** Qozog'iston, **21 foizi** Qirg'iziston va **15 foizi** Turkmanistondan kirib kelmoqda. Har bir davlatdan tashilayotgan tovarlar, tashuvchilar va xavf darajasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli **1,2 mln ta** yukli transport vositalarini yagona tartibda (**100 foiz**) nazorat qilish o'rniga xavflarni boshqarishga asoslangan tabaqalashtirilgan nazorat mexanizmlarini qo'llash samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi.

Asosiy bojxona postlari katta yuklama bilan faoliyat yuritmoqda. Mazkur postlar hozirgi vaqtda, asosan, **o'tkazish punktlari** sifatida xizmat ko'rsatmoqda. Ularda logistika, bank va laboratoriya xizmatlari alohida tashkil etilgan bo'lib, ushbu xizmatlarni o'zaro integratsiyalash bojxona-logistika tizimi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

7 ta turli transport koridori Rossiya, Xitoy, Turkiya va Eron kabi davlatlar bilan bog'langan. Har bir koridorda turli xalqaro axborot tizimlari faoliyat yuritadi. Mazkur koridorlardagi yuk oqimlarini samarali boshqarish uchun milliy axborot tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash imkonini beruvchi yagona axborot platformasini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, har bir koridor bo'yicha alohida ma'lumotlar bazalarini yuritish tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin (**2-rasm**).

2-rasm. Tashuvlarning avtotransport koridorlaridagi ulushi (2025-yil)³

1-jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro va mintaqaviy tranzit tizimlariga integratsiyalashuv darajasini, mavjud imkoniyatlar hamda rivojlantirish istiqbollarini yaqqol namoyon etadi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro va mintaqaviy tranzit tizimlariga integratsiyalashuv darajasi⁴

№	Bitim nomi	Tranzit tizimi nomi	Davlatlar	O'zbekiston a'zomi	2025-yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan tashuvlar	Kafolat	Deklaratsiya
1	Tovarlarni xalqaro tashishda qo'llanadigan bojxona konvensiyasi (XDT konvensiyasi) — 1975-yil	TIR, eTIR	Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi 78 ta davlat	Ha	140 000	Ha	Ha
2	Umumiy tranzit tartib-taomillari to'g'risidagi konvensiya — 1987-yil	NCTS	Yevropa Ittifoqi, Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Lixtenshteyn, Turkiya, Shimoliy Makedoniya, Serbiya, Buyuk Britaniya, Ukraina	Yo'q	0	Ha	Ha


³ Muallif ishlanmasi

⁴ Muallif ishlanmasi

3	YeOII va uchinchi tomon o'rtasida Bojxona tranzitining yagona tizimi to'g'risidagi bitim — 2022-yil	Mavjud emas	YeOII davlatlari	Yo'q	0	Yo'q	Yo'q
4	„Uzluksiz tranzit“ loyihasi	Mavjud emas	O'zbekiston va Qozog'iston	Ha	0	Yo'q	Ha
5	„CATS“ loyihasi	CATS	Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari	Ha	0	Ha	Ha

Bojxona tranzitida kafolat tizimining mavjud emasligi yoki yetarli darajada takomillashmaganligi bojxona organlari faoliyatida moliyaviy xavflarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. **TIR** tizimida kafolat **IRU** tomonidan ta'minlanadi, **CATS** tizimida esa milliy sug'urta yoki bank kafolatlari qo'llaniladi. «Uzluksiz tranzit» loyihasi doirasida kafolat mexanizmini ishlab chiqish loyihaning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Quyidagi infografikada **6 ta** yirik chegara bojxona posti bo'yicha tranzit deklaratsiyalarining hajmi hamda ularni rasmiylashtirish tezligi aks ettirilgan (**3-rasm**).



3-rasm. Umumiy rasmiylashtirilgan tranzit deklaratsiyalari

Bojxona qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, tranzit deklaratsiyalarining **51 foizi** oldindan taqdim etiladi. Chegarada rasmiylashtirish vaqti xavf darajasiga qarab sezilarli farqlanadi. Jumladan, „Qizil yo'lak“da rasmiylashtirish **23 soat 19 daqiqa**, „Sariq yo'lak“da esa **4 soat 54 daqiqani** tashkil etadi. Import operatsiyalarida tovarlarning boshqa bojxona rejimlarida (ombor, qayta ishlash) saqlanish muddati **68 kun 11 soatni** tashkil etib, bu to'g'ridan to'g'ri import rejimidagi (**9 kun 12 soat**) rasmiylashtirish muddatidan qariyb **60 kunga** ko'proqdir.

Oldindan taqdim etilgan deklaratsiyalar ulushi **51 foizni** tashkil etmoqda. Qolgan **49 foiz** deklaratsiyalarni chegara hududida to'liq rasmiylashtirish talab etiladi. Bu esa nazorat jarayonlarini yanada optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

„Sariq yo'lak“da rasmiylashtirish jarayoni **4 soat 54 daqiqa** davom etmoqda. Mazkur holat, asosan, hujjatlarni qo'lda tekshirish va ularni o'zaro moslashtirish jarayonlari bilan bog'liq.


„Qizil yo'lak“dagi yuklarni rasmiylashtirish **23 soat 19 daqiqa** davom etadi. Bu esa xavflarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Amaldagi tizimda xavflarni baholash jarayonida inson omili yoki mavjud algoritmlarning xususiyatlari sababli ayrim past xavfli yuklar ham „**Qizil yo'lak**“ orqali yo'naltirilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, „**Boshqa rejimlar orqali import**“ bojxona rejimida tovarlarning rasmiylashtirish muddati **68 kunni** tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich to'g'ridan to'g'ri import rejimiga nisbatan (**9 kun**) qariyb **60 kunga** uzoqroq bo'lib, ushbu yo'nalishda jarayonlarni optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.



Jahon bojxona tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, inspeksion ko'rik majmualari tasvirlari hamda yuk hujjatlarini sun'iy intellekt (AI) yordamida tahlil qilish orqali bojxona xodimlarining ish yuklamasi **35–40 foizga** kamayadi, noqonuniy yuklarni aniqlash darajasi esa **25 foizga** oshadi. Taklif etilayotgan AI elementlarini qo'llashning ilmiy-metodik yondashuvlari xavf darajasini baholash aniqligini yanada oshirish imkonini beradi.

2024-yilga kelib bojxona tizimini raqamlashtirishning sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Jumladan, interaktiv xizmatlar soni **2017-yildagi 9 tadan 2024-yilda 42 taga** yetgan (qariyb **4,6 baravar** o'sish). Axborot-hisobot modullari bo'yicha **2024-yilning o'zida 35 ta** yangi modul ishga tushirilgan. Mobil ilovalar soni **2021-yildagi 1 tadan 2024-yilda 8 taga** yetgan (4-rasm).



4-rasm. 2017–2024-yillarda Bojxona qo'mitasining axborot almashish ko'rsatkichlari⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

2021–2025-yillarda kunlik avtotransport harakati 2 barobarga, yo'lovchilar oqimi esa 4 barobarga oshgan. Shu bilan birga, chegara infratuzilmasi yuklamasi ayrim postlarda yuqori darajada jamlangan. Shuningdek, ketma-ketlik tamoyiliga asoslangan nazorat tartibi natijasida yuk transport vositalarining kirish nazorati 22–30 daqiqa, "Qizil yo'lak"dagi tranzit rasmiylashtiruvchi esa 23 soat 19 daqiqa davom etmoqda.

Rasmiylashtirish vaqti 11 barobarga qisqargani hamda qog'ozsiz savdo ko'rsatkichi 74,07 foizga yetganiga qaramay, tranzit deklaratsiyalarining 51 foizi oldindan taqdim etilmoqda. Aniqlangan xatoliklarning 68 foizi inson omili bilan bog'liq bo'lib, nazorat organlari o'rtasida to'liq integratsiyalashgan ma'lumot almashinuvi tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

mamlakatimizdagi 17 ta vakolatli idorani "once-only" tamoyili hamda WCO Data Model standartlari asosida yagona raqamli ekotizimga integratsiyalash;

X-ray tasvirlari (CV), davlat raqamlari (ANPR), hujjatlar (NLP) va xavflarni skoring qilish (Risk AI) texnologiyalarini qo'llash orqali "Qizil yo'lak"dagi ushlanishlar hamda inspektorlar ish yuklamasini 35–40 foizga kamaytirish;

chegara postlarini oddiy o'tkazish punktlaridan logistika, bank va laboratoriya xizmatlarini o'zida mujassamlashtirgan, Coordinated Border Management (CBM) va PPP tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi zamonaviy bojxona terminallariga bosqichma-bosqich transformatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi. Bojxona deklaratsiyalarini tahlil qilish bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025. – 32 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi. Raqamli transformatsiya strategiyasi: 2023-yil natijalari. – Toshkent, 2024. – 18 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Tranzit yuklar tashish statistikasi: 2025-yil. – Toshkent, 2025. – 15 b.
4. World Bank. *Uzbekistan Transport and Logistics Policy Note*. – Washington, DC : World Bank Group, 2022. – P. 34–41.
5. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Recommendation No. 33: Establishing a Single Window*. – Geneva : UNECE, 2019. – P. 15–25.
6. Hummels D. Time as a Trade Barrier // *Journal of International Economics*. – 2007. – Vol. 72, No. 2. – P. 320–338.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100